

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)  
[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nozliya Normurodova  
**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nozliya Normurodova

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### LINGVISTIKA

#### **Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**

O'zbek tilida metafora va metonimiya shakllanishida milliy tafakkurning o'рни.....6

#### **Zoxira Xidraliyeva**

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati .....23

#### **Hairatullah Barlas**

Tuhfetul-Abidin'in Şekil Özellikleri .....35

### ADABIYOTSHUNOSLIK

#### **Elmira Adilbekova**

Hacı Bektaş Veli'nin Ahlaki Düşüncesi: Anadolu Tasavvuf Geleneğinde Etik Bir Yaklaşım.....51

#### **Feruza Burxonova**

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.....72

#### **Parviz Izzatillayev**

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: "Majolis un-nafois" – "Hasht bihisht" .....89

#### **Gulrux Xudoyorova**

Lirik kechinma tabiati .....110

#### **Тюркан Вердиева**

Отражение литературно-культурной среды Гянджи XII века в драматических произведениях XX века Мехти Гусейна и Камали Агаевой .....127

#### **Leyla Karimova**

Makedoniyalı İskenderin Azərbaycana Seyaheti: Tarih ve Nizami Gencevinin Hayal Dünyasında Yansıması .....140

### SOTSILOGIYA

#### **Fatxulla Abduvaliyev**

Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri .....152

## CONTENT

### LINGUISTICS

- Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**  
The role of National Worldview in the Formation of Metaphor  
and Metonymy in the Uzbek Language.....6
- Zakhira Khidraliyeva**  
The Relationship Between the Oghuz Dialects  
of Southern Kazakhstan.....23
- Hayratullah Barlas**  
Formal Characteristics of *Tuhfetul-Abidin* .....35

### LITERATURE

- Elmira Adilbekova**  
The Moral Philosophy of Haci Bektaş Veli: an Ethical  
Approach in the Anatolian Sufi Tradition .....51
- Feruza Burkhanova**  
The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic  
Characteristics.....72
- Parviz Izzatillaev**  
Comparison of the Original Text and the Persian Translation:  
“Majolis un-Nafois” – “Hasht Bihisht” .....89
- Gulrukh Khudoyorova**  
The Nature of Lyrical Experience.....110
- Turkan Verdiyeva**  
Reflection of the Literary and Cultural Sphere of the  
XII<sup>th</sup> Century Ganja in the XX<sup>th</sup> Century Dramas of Mehdi  
Huseyn and Kamala Agayeva .....127
- Leyla Karimova**  
The Journey Alexander of Makedonian the Great to  
Azerbaijan: its Reflection in History and in Nizami Ganjavi’s  
imaginative World .....140

### SOCIOLOGY

- Fathulla Abduvaliev**  
The Impact of Globalization Processes on Educational Migration.....152

## Lirik kechinma tabiati

Gulrux Xudoyorova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Abdulla Oripovning xorij safarida yaratilgan she'rlari badiiy qamrovi, shakl va mazmun xususiyati, lirik kechinma ifodasiga ko'ra individual ijodiy uslub mahsulidir. O'zbek adabiyotshunosligida ulug' shoirlar ijodida lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi masalasi qisman o'rganilgan. Ushbu maqolada ijodda maktab yaratgan O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatini ayni ilmiy muammo kesimida tadqiq qilish barobarida, shu orqali ijodkor asarlarining millat badiiy-estetik tafakkurida tutgan o'rni ilmiy baholanadi. Qolaversa, shoir ijodida lirik kechinmaning xususiyatlari, avtopsixologik lirika namunalari tahlil etiladi. Botiniy va zohiriy lirik kechinma namoyon bo'lishida muallif nuqtayi nazari, ijodiy novatorligi she'rlar asnosida badiiy va ilmiy asosda o'rganiladi. Abdulla Oripov ijodida ijodkor kechinmasi namoyon bo'lish usullari va vositalari tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** *lirik kechinma, avtopsixologik lirika, botiniy va zohiriy kechinma, badiiy tafakkur, antitezis lirik kechinma, turg'un lirik kechinma.*

### Kirish

Kechinma – she'rning rangi. Ijod mahsulining betakrorligi undagi lirik kechinmaning rang-barang tarzda aks ettirila olinishiga bog'liq hodisa. Kechinmaning qay tarzda vujudga kelishi esa ijodning tub mohiyatini anglash jarayonidir. Lirik kechinma – fikr va hissiyot uyg'unligi hosilasi. Ammo she'r tahlili jarayonida fikr-hislarni hosil qiluvchi vosita sanaladimi yoxud his natijasida fikr hosil bo'ladimi, ayni shu jihatni aniqlash yetakchi masaladir. Bu masala haqida "Adabiyotshunoslik nazariyasi" da shunday xulosa beriladi: "His va sezgirlikning o'zaro tafovuti shundaki, keyingisi tanimizda biror bir moddiy jism ta'sirida qo'zg'olgan jismoniy sezgi, birinchisi ham jismoniy, biroq u fikrdan tug'ilgan sezgi" [Adabiyot nazariyasi 1979,

---

<sup>1</sup> Xudoyorova Gulrux Normurod qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** gulruxxudoyorova8@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-1977-2225

**Iqtibos uchun:** Xudoyorova, G. N. 2025. "Lirik kechinma tabiati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 110 – 126.

241]. Hislarning paydo bo'lish manbayi fikrga borib taqaladi, ammo she'riy asarda his va fikrning omixtalashuvi badiiylilikni ta'minlaydi.

### **Asosiy qism**

Lirik kechinma har bir ijodkor ijodida turlicha akslansa-da, uni hosil qiluvchi vositalar ma'lum bir umumiylikka ega. "Poetik obraz, ohang, ritm, peyzaj, o'y-xayol, vazn kabilar lirik kechinmani hosil qiluvchi vositalar sirasiga kiradi" [Bobobekova 2015, 23]. Bu vositalar lirik kechinma tabiatini oydinlashtiradi. Hech bir she'r lirik kechinmadan holi bo'lishi mumkin emas. Zero, adabiyot – inson tuyg'ularining mahsulidir. Jumladan, she'riyat ruhiy kechinmalar, qalb tug'yonlari natijasi o'laroq dunyoga keladi. Shoir qalbining tubida biqillab qizib turgan hissiy kechinmalar ma'lum bir vaziyat, hissiy ta'sir oqibatida vulqon kabi katta qudratga aylanadi va portlaydi. She'riyat aynan shu hislar portlashining mahsulidir. Har qanday portlash jamiyatga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgani kabi hissiy portlash ham uning vakillari qalbiga, shuuriga, ta'sir ko'rsatadi. Shoir kechinmalarining mahsuli bo'lmish she'r ta'sirida butun boshli jamiyat harakatga kelishi mumkin. Tuyg'ular shoir qalbi prizmasidan o'tib kuchli lirik kechinmaga aylanadi. Ijodkor yaratish imkoniga, ijod yaralish xususiyatiga ega ekanligi inobatga olinsa, ayni shu hodisa natijasi lirik kechinmadir.

Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov lirik kechinma tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar ijodkorning diqqat-e'tiborini tortib, qalb-u shuuriga o'rnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o'y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. San'atkorning qalbini zabt etgan, uning oromini huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma deb ataladi" [Sarimsoqov 2004, 85]. Olim lirik kechinma voqe bo'lishi va tugal estetik hodisa sifatida shakllanishiga qarab, uni oniy lirik kechinma va xotira lirik kechinmaga ajratadi. Bularning bir-biridan asosiy farqi, biri lahzalik kechinma natijasi o'laroq yaratilgan she'riy asarlar bo'lsa, biri shoirning uzoq vaqt mobaynida xayollarini band etib yurgan fikrlari natijasida yillar davomida yaratilgan she'riyat namunalaridir. Bunga Xurshid Davronning 1981 - 1982-yillarda yaratilgan "Devon-u lug'otit-turk", Shavkat Rahmonning 1974 - 1980-yillarda yaratilgan "She'riyatdagi haykaltaroshlar" kabi she'rlari misol bo'la oladi. Yuqoridagi nazariy tasnifdan kelib chiqqan holda Abdulla Oripovning 8 mamlakatga safari natijasi o'laroq vujudga kelgan "Haj daftari", "Jeneva daftari", "Yapon ohanglari", "Italiya daftari", "Turkiya daftari", "Ummonorti

ilhomlari” to’plamlari va Moskva, Armaniston safarlarida yaralgan jami 277 ta she’rning yozilgan yil va sanalari aniq bo’lganligi bois ular oniy lirik kechinma mahsulidir.

Abdulla Oripovning xorijda yozilgan she’rlarida lirik kechinmaning o’rni masalasini o’rganish yangi nazariy asoslar vositasida yondashishga undaydi. Shoirning she’rlarida kechinmani hosil qiluvchi vositalar bir xil bo’lsa-da, kechinmaning o’zi turlichadir. Abdulla Oripov ruhiyatidagi evrilishlar uning kechinmalariga ham ta’sir o’tkazishi tabiiy hol va shu jihatdan ijodkor ba’zan qarama-qarshi tuyg’ular girdobida ikkilanishlar ichida o’z tuyg’ularini aks ettiradi, ammo uning ruhiyatida shunday kechinmalar borki, ular aslo o’zgarmaydi. Ayni shunday kechinmalarni *antitezis lirik kechinma va turg’un lirik kechinma* deya nomlash mumkin. Shoir kayfiyat odami. Uning kechinmalari ham o’zgaruvchan. Nafaqat shoir, balki har bir inson o’zaro qarama-qarshi tuyg’ular ichida qolishi mumkin. Boshqalardan farqli o’laroq ijodkor ruhiyatidagi kurash uning ijodida voqelanadi. Ijodkor bir asarning o’zidayoq bir necha xil ruhiy holatni his etishi va akslantirishi mumkin. Shoir bunday she’rlarda boshqa bir lirik qahramonning emas, o’z tuyg’ularini ifodalaydi, ya’ni bunda lirik qahramon shoirning o’zi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov lirik qahramon shoirning o’zi bo’lgan she’rlarga “Avtopsixologik lirika” deb nom beradi: “Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikalasi bir-biriga yaqin bo’lgan she’rlar tushuniladi. Ya’ni avtopsixologik she’rlarda shoir o’z qalbiga murojaat qiladi, o’z-o’zini ifodalaydi” [Quronov 2007, 183]. Abdulla Oripov ijodidagi yolg’izlik motivi uning antitezis lirik kechinmalarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir poetik kayfiyatida yolg’izlik aksariyat hollarda ustunlik qiladi:

*Yolg’izmisan deding,*

*Yolg’izman dedim.*

*So’ngra qo’shib qo’yding:*

*Yolg’izman men ham* [Oripov 2019, 603].

Ijodkor yolg’izlikdan o’ziga halovat topadi. Yuqoridagi kechinmalariga hamohang tarzda “Italiya daftari”da hayotda chinakam do’st uchramaganidan kuyingan shoir xiyonatkor do’stlardan ozor chekishdan ko’ra “Yolg’izlik afzaldir, yolg’izlik afzal”, deya takrorlaydi. Abdulla Oripov lirik qahramoni aksariyat hollarda “nopok qalblar bilan jiddiy va ko’proq to’qnashmoqda. Shoir yaxshilikning qo’li qisqa bo’lsa, yomonlikning qo’li baland deb biladi” [Adabiy turlar va janrlar 1992, 125]. Shu sabab bunday

nohaqliklarning guvohi bo'lishdan ko'ra yolg'izlikni afzal ko'radi. Boisi, shoir uchun eng og'ir azob do'stlar xiyonatini ko'rishdir. Ammo "Ummon orti ilhomlar"dan o'rin olgan she'rlar tahlili umr sarhisobiga kelib, shoirning lirik kechinmalari tamomila o'zgarib borganini tasdiqlaydi. Endi shoir hayotda umrbod yolg'iz bo'lmaganini, taqdir unga o'zi kabi halol va vijdonli do'stlar tuhfa etganini anglay boshlaydi:

*Sendan do'st so'radim, yolvorib yana,  
To'g'rigo'y hamrohlar duch keldi, qulluq.  
Ular ham men kabi yuribdi, ana,  
Chayqov bozoringga kirgulari yo'q [Oripov 2019, 643].*

Ma'lum bo'ladiki, shoir o'z kechinmalari yillar o'tgani sari o'zgarib borganini she'rlardagi lirik kayfiyat vositasida tadrijiy aks ettiradi. Bu kabi holatlar ifodasi yana boshqa she'rlarda ham uchraydi. U o'z tuyg'ularini o'sha vaqtdagi ruhiy holatidan kelib chiqqan holda yoritar ekan, qarama-qarshi fikrlar ham o'quvchini ikkilantirmaydi, g'ashiga tegmaydi. Boisi, shoir bir lahzalik kechinmasini boricha, bo'yamay, haqqoniy tasvirlaydi. Moskva safarida yozilgan "Meni olib keting o'z diyoringa" she'ri shoir qalbidagi tushkunlik kayfiyati ifodalangani bilan xarakterlanadi. U hayotdan umidini uzish barobarida, hayotning qonuniyatlari, jabrlari qarshisida taslim bo'lgan inson qiyofasida namoyon bo'ladi. Maysaning qisqagina umrini tahlil qilib, o'zi ham hayotdan ketishga ruhan tayyor ekanini ifodalaydi:

*Issiq jon, deydilar, jon bo'lsa olar,  
Payt kelsa chechak ham sarg'ayar so'lar.  
Kim bilgay paymonang qay erda to'lar,  
Meni olib keting o'z diyoringa [Oripov 2019, 254].*

Abdulla Oripovning birgina chechak misolida adabiyot-shunos Matyoqub Qo'shjonov ilk she'ri bo'lmish "Archa" tahlilida qayd etgan "hayot falsafasi, tabiat falsafasi" [Qo'shjonov, Suvonov 2000, 136]ni yana takror suvratlantiradi. Ammo bu ruhiy holat doimiy kuchga ega emas. Shoirning qirq yoshlaridagi hayotdan ketishga ruhan tayyorlik kayfiyatidan oltmish yoshida asar ham qolmagani buning isbotidir. Bu lirik kechinmaning ifodalanishida ham muallif "hayot" poetik obrazini tanlaydi:

*Zimistonning yuzin ters qilsin,  
Umr qadrin bilganlar bilsin.  
Bilmagan-chi, ko'ksini tilsin,*

*Seni juda sevaman, hayot* [Oripov 2019, 753].

Shoir umr nihoyasida hayotni to'liqroq anglay boshlar ekan, unga muhabbati oshadi, yana yashagisi kelaveradi. Umrning qadrini va hikmatini teranroq anglab etadi. Ikki she'rning bo'g'inlar soni va ohangi ham lirik kechinma yuzaga chiqishida muhim vazifa bajaradi. Birinchi she'rdagi 11 bo'g'in, bosiq ruhiy holat lirik qahramonning tushkun kayfiyatini, ikkinchi she'rdagi 9 bo'g'inli ohang esa ijodkorning hayotga muhabbat kechinmasi aniqroq ifodalanishiga yordam beradi. Bu kabi antitezis lirik ifoda nafaqat shoirning turli to'plamlarida, ba'zan hatto birgina she'rning o'zida ham kuzatiladi. Shoir "Umr daftarlari" deb nomlangan 8 qator she'rida:

*Ko'rgingiz kelsa gar baxtli odamni,  
Qayga borardingiz, axir netgaysiz?  
Keling huzurimga, unuting g'amni,  
Yayrab o'tirgaysiz, mamnun ketgaysiz,* – [Oripov 2019, 721].

deya o'zini dunyodagi eng baxtli odamlar sirasiga qo'shadi. Ammo baxtlilik kayfiyati shoir ruhiyatida uzoq davom etmaydi. Keyingi bandning o'zidayoq lirik kechinma tasviri tamomila o'zgaradi. Abdulla Oripov lirik kechinmani ifodalash jarayonida bir she'rda bir shaxs "men"idan kelib chiqqan holda ikki xil poetik obrazni – baxtli va baxtsiz odam qiyofasini ikki xil lirik kechinma vositasida aks ettiradi:

*Ko'rmoqchi bo'lsangiz baxtsizni agar,  
Yurmang yiroqlarda, keling men tomon.  
Hasratli umrimning o'zi bir daftar,  
O'qib yig'lay-yig'lay, qaytgaysiz nolon* [Oripov 2019, 721].

Ammo kechinmaning bunday ifodasi o'quvchida zarracha e'tiroz uyg'otmaydi. Buning sababi ijodkor tuyg'ulari rost, kechinmalari samimiyligidadir. Chunki shoir o'zi ma'lum bir lahzada anglab etgan va his qilgan kechinmalarini ifoda etadi. Tolstoy "Yosh yozuvchilarga" maqolasida: "Har birimiz ham ko'nglimizdagini yozsakkina yaxshi chiqadi. Buni alohida ta'kidlayman. San'at asari kishi o'zi biror narsa yozishim kerak, deb hisoblaganida emas, balki nimanidir yaratish, yozish ishtiyoqi tug'ilgandagina vujudga keladi" [Badiiy ijod haqida 1960, 93] deya ta'kidlaydi. Abdulla Oripov ijodi ayni yaratish ishtiyoqi tug'ilgandagina yozilgan she'rlardan iborat bo'lib, u aynan his etganlarinigina yozadi. Shu jihatdan, uning she'rlaridagi lirik kechinmalar jonli va ko'chuvchan.

Shoirning:

*Qalbim buyurmasa, biror so'zni ham,*

*Yozmasman hech qayda, hech vaqt, hech qachon* – [Oripov 2019, 682], kabi misralari fikrimiz isbotidir. Abdulla Oripov she'riyati tahlili shoirning boshqalarga tegishli kechinmalarni ham eng avval, o'z qalbi prizmasidan o'tkazib, o'ziniki qilgachgina yozishga kirishganidan dalolat beradi. Bu holat faqat chinakam ijodkorlarda uchraydigan xususiyatdir. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov: "Lirik shoir o'z shaxsiyati uchun butunlay tashqi bo'lgan, o'ziga begona bo'lgan dunyodan olgan tuyg'uni ifoda qilgan vaqtida ham u subyektivdir. Chunki u ifoda etgan har qanday tuyg'u ijod qilish vaqtida ham uning o'z tuyg'usi bo'lib qoladi" [Sharafiddinov 1979, 147] – deya yozganida ayni shu holatni nazarda tutgan edi.

Abdulla Oripov ham ayni shu holat haqida to'xtalib, qalban his qilmasdan she'r yozadigan shoirlarni "kosiblar" deb ataydi. Ijodkorlarning bu birinchi toifasini qoralab, "adabiyotga tirikchilik taqozosi tufayli yoxud nom qozonib yashash ishtiyoqida" kirib kelganligini qayd etsa, ikkinchi toifadagilar esa "qalb amri bilan ijod qiluvchi" [Oripov 1988, 81] ijodkorlar bo'lib, ular tug'ma iste'dod egasi ekanliklarini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, Abdulla Oripov ijodi badiiy mukammal ustunga va betakrorlikka ega. Uning she'rlari, shubhasiz, tug'ma iste'dod va ilhom mahsulidir. Abdulla Oripov ijodining betakrorligi va ikkinchi bir nusxasi yo'qligini Mirza Kenjabek quyidagicha izohlaydi: "Ba'zi san'atkor shoirlarga taqlid qilib bo'lmaydi. Abdulla Oripovga taqlid qilgan kishi uyatga qoladi. Uning har tarafidan ulug' shoirning kiyimlari ko'rinib turadi" [Kenjabek 2021, 64].

Abdulla Oripov lirikasi haqida so'z borar ekan, uning barcha she'rlarini antitezis lirik kechinma mahsuli o'laroq baholash nojoiz. Boisi, shoir ba'zi she'rlarida qat'iy pozitsiyani saqlaydi, shaxsiy qarashlarini muhofaza qiladi. Jumladan, Abdulla Oripov bashariyat uchun xos bo'lgan Vatan tushunchasini ifodalashda, Vatan bilan bog'liq qarashlarni aks ettirishda o'zining turg'un lirik kechinmalariga ega. Vatan bilan bog'liq kechinmalar, qayda bo'lmasin, uning o'zi bilan birga yashaydi va o'zgarmaydi.

Xoh Italiya, xoh Jeneva, xoh Turkiya, xoh Amerika – hamma yerda shoir Vatani va xalqi taqdiridan xavotir oladi, uning kelajagi haqida qayg'uradi. Yutuqlaridan faxrga to'lsa, kamchiliklaridan qayg'uga botadi. Uning Vatanga muhabbati har bir to'plamdagi Vatan haqidagi she'rlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir qalbidagi muhabbat, faxr, qaygurish kabi barcha lirik kechinmalari uning

Vatan haqidagi she'rlarida bo'y ko'rsatib turadi va bu kechinmalar yillardan yillarga, kitobdan kitobga, she'rdan she'rga ko'chadi.

Hech bir badiiy asar lirik kechinma tasviridan xoli bo'lmaydi. Ammo kechinma ham individual xarakterga ega. Har bir ijodkor biror voqelikka o'zi istagan nazar bilan boqadi va shu bois ham ayni bir voqeaga nisbatan har bir inson turlicha kechinmani his etishi mumkin. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov Abdulla Oripovning Vatan haqidagi lirikasi xususida so'z yuritib, shunday yozadi: "Vatan mavzusi Abdulla Oripov ijodida o'ziga xos yuksak maqomga ega. Ijodkorning bu mavzudagi she'rlari she'riyatdagi mavjud qoliplarga aslo mos kelmaydi. "Vatan" so'zini suiste'mol qilish, targ'ibot-tashviqot ruhi shoir ijodiga mutlaqo begona. Abdulla Oripov Vatan mavzusiga betakror yondashadi, kutilmagan tashbehlarni qo'llaydi, misralar quyilib keladi. Natijada, ularni mutolaa qilganlar qalbida o'z-o'zidan ona zaminga muhabbat tug'iladi. Ko'ngillarga Vatan qadri nechog'li yuksak ekani haqidagi tuyg'u inadi" [Jabborov 2013, 325]. Shoirning xorij safarlari davomida vujudga kelgan 8 ta turkumdagi Vatan haqidagi har bir she'rga nazar solsak ayni shu fikrlar tasdig'iga guvoh bo'lamiz. Ularning har birida Vatan va xalq taqdiridan xavotir, unga qayg'urish, kuyinish kabi tuyg'ular aks etadi. Shoir "Haj daftari" turkumidan o'rin olgan "Ka'batulloh" she'rida shunday yozadi:

*Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan  
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh.  
Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan  
Keldim, najot izlab, yo Ka'batulloh* [Oripov 2019, 323].

Haj safari har bir musulmon orzu qiladigan safardir. Odatda bu safarda insonlar gunohlaridan forig' bo'lishni, Ollohning makonini ziyorat etib maqsadlariga yetishmoqlikni niyat qiladilar. Abdulla Oripov shu ulug' maskanda o'z xalqi va Vatani taqdiri uchun kuyinmoqda. Biri ikki bo'lmagan, toleyi kulmagan xalq uchun najot izlayapti. E'tiborga molik jihati, shoir o'zini emas, xalqini o'ylaganidir. Bu muqaddas dargohda yolg'on so'z aytib bo'lmasligi, hech narsadan ta'ma kutish mumkin emasligi inobatga olinsa, shoir qalbidagi bu kechinmalar naqadar sof va samimiy ekani ayon bo'ladi. Shoir qalbidan 1993-yili haj safari davomida kechgan aynan shu kechinma keyingi she'rlarda ham o'ziga xos badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Ijodkor "Jeneva daftari" dan o'rin olgan "Xalqaro anjuman" she'rida mana bunday yozadi:

*Qo'shni fin so'raydi sekin, aylab noz:*

*– Janob, Siz kim uchun bergaysiz ovoz ?*

*Men ham esnayman-u, ko'krak keraman,  
O'zbekiston uchun ovoz beraman!* [Oripov 2019, 388].

O'zbekiston uchun ovoz berish! Shoir Haj ziyoratida Vatani uchun duo qilgan bo'lsa, xalqaro konfrensiyada Vatani uchun ovoz beradi. Har ikki she'rda ham shu yurt taqdirini o'z qismati deb biladi. Yuqorida keltirilgan she'r shoirning Jenevaga 1996-yilda qilgan safari davomida yozilgan bo'lsa, shoir ikkinchi bor Jenevaga sayohat qilganda ham qalbida o'sha avvalgi lirik kechinmalar bilan qaytadi. Shoirning 2003-yil, 8-iyulda yozilgan "Maktub" she'rida ayni holat kuzatiladi:

*Men ham noming aytib duoda turdim,  
Sen omon o'tgaysan jar-u o'rlardan.  
Men faqat qo'rqaman, qo'rqaman, yurtim,  
Ichingdagi turli baloxo'rlardan* [Oripov 2019, 442].

Shoir yana o'z yurti uchun duoda, yana o'z yurti uchun xavotirda. Ayni shu o'xshash kechinmalar "Jeneva daftari"ga kelib tugab qolmaydi. Ular shoirning boshqa safardagi, o'zga yurtlardagi she'rlarida ham izchil davom etadi:

*Do'zax har qayda bor va lekin jannat  
Ipakka o'ralgan durdek nihondir.  
Gar uni zaminda axtarsang albat  
Biri sen, birisi O'zbekistondir* [Oripov 2019, 491].

Shoir Italiya haqida so'zlab turib, yana Vatanini yodga oladi. U Vatanidan chetda turib ham shu yurt bilan, shu tuproq bilan chambarchas bog'langan. U qayerda bo'lmasin, toki tanida joni bor ekan, ko'nglidagi Vatanga bo'lgan cheksiz, samimiy kechinmalar u bilan birga yuraveradi, ulg'ayaveradi. Bu haqda Abdulla Oripovning o'zi suhbatlaridan birida shunday degan edi: "Vatan tuyg'usi insonga ona vujudidayoq esh bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Yillar, hayot bu tuyg'uga shakl beradi, sayqal beradi" [Oripov 2013, 216]. Shoirning xorijda yaratilgan Vatan haqidagi she'rlarining yaratilgan sanalar bo'yicha poetik tadriji tahlil etilganda, yuqoridagi fikrlar tasdiqlanadi – shoirning o'z Vataniga bo'lgan tuyg'ulari yildan yilga ortsa ortadiki, aslo kamaymaydi. Qay yurtga safar qilmasin, dunyoning eng go'zal go'shasida ham o'z yurtini sog'inaveradi. Hatto Vatani bag'rida turib ham uning mehriga to'ymaydi, uni qo'msayveradi. Insonning bu dunyoda musofirligini, asl muhabbat makoni faqatgina o'z yurti ekanligini, Vatanni sevmoq ham aslida insonga imtihon

ekanligini yaxshi anglaydi. “Ummonorti ilhomlari”dan joy olgan quyidagi misralar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Azal musofirdir dunyoda odam,  
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.  
Bir umr qo'yingda muqim tursam ham,  
Sog'inib yashadim seni, Vatanimm.  
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu [Oripov 2019, 663].*

Ko'rinib turibdiki, Vatan bilan bog'liq kechinmalari umrbod shoir bilan birga, uning yuragida bo'ldi. Abdulla Oripovning xorijda yozilgan Vatan haqidagi she'rlarida betakror ifodalangan ayni shu bir-birini to'ldirib boruvchi misralar, kitobdan kitobga teranlashib, ta'sir kuchi oshib boruvchi kechinmalar ushbu fikrni quvvatlaydi. Vatan haqidagi bu she'rlarda shoir kechinmalari ochiq-oydin talqin etiladi. Abdulla Oripovning Vatan tuyg'usi ifodalangan kechinmalari xorijda yozilgan she'rlarida ikki xil tarzda namoyon bo'ladi:

1. *Zohiriy kechinmalar tarzida.* Bunga yuqorida biz tahlil qilgan she'rlar misol bo'la oladi. Ularning hammasida shoirning Vatanga bo'lgan mehri, muhabbati yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir o'z kechinmalarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi.

2. *Botiniy kechinmalar tarzida.* Bunday she'rlarda shoir o'z lirik kechinmalarini ochiq-oshkor izhor etmaydi. Ularni qandaydir voqea-hodisa yoxud obraz zamiriga yashirgan holda tasvirlaydi. Adabiyotda bir lirik kechinma vositasida boshqa bir lirik kechinmani ifodalash ham mumkin. Bunda shoir badiiy maqsadini ochish uchun biror bir obrazni vosita sifatida tanlaydi. Bunday obrazlarni vosita obrazlar deb atash mumkin. Vosita obrazlar bir necha ijodkorlarning xorij safarlarida yozgan she'rlarida uchraydi. Jumladan, rus shoiri Sergey Yeseninning Sharqqa safarlari mobaynida yaratilgan she'rlarida uchrovchi “Shahina”, Erkin Vohidovning Kavkaz bo'ylab safari mobaynida yuzaga kelgan she'rlaridagi “Azganush” kabilar vosita obrazlarga misol bo'la oladi. Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan she'rlarida ham bu kabi vosita obraz mavjud. “Habash qiz”, “Kamilla”, “Salminaxonim”, Irina kabi obrazlar shular sirasidandir. Bu obrazlar shoirning lirik kechinmalarini o'ziga xos tarzda ochib berishi uchun poetik manba vazifasini o'taydi va shoir she'rga zohiriy qatlamda ko'rinib turganidan farq qiluvchi butunlay boshqa bir mazmunni singdiradi. Shu jihatdan ham vosita obrazlar qatnashgan she'rlar mohiyatida o'zaro yaqinlik, bog'liqlik borligi kuzatiladi. Aynan shunday o'zaro yaqinlik Yesenin va Oripov ijodida yaqqolroq ko'rinadi. Har ikki ijodkorning xorijda

yoziqlan she'rlaridagi dastlabki va eng muhim umumiylik ikkala shoir lirikasida vatanparvarlik hissining ustuvorligidir. Har ikki ijodkordagi vatanparvarlik tuyg'usi mohiyatan bir-biriga yaqin: qay yurtida bo'lmasin, o'z Vatani yodi bilan yashaydi. Abdulla Oripov va yesenin ijodi o'rtasidagi bunday poetik uyg'unlikni E.Vohidov ham "Hyuston ilhomlari" maqolasida alohida ta'kidlaydi.

Sergey Yeseninning "'Shahinam, o, mening Shahinam" deb nomlanuvchi she'rida ham kechinmani obraz zamiriga yashirib ifodalash holati kuzatiladi. Yesenin eronlik go'zal Shahinaga murojaat qilar ekan, "Shimol yoqda bir nozanin bor"ligini eslab o'tadi. Sharqda ko'ngil qo'ygan yori (Shahina) shoirga Shimolda unga intizor bo'lgan o'z muhabbatini, o'z Vatanining dilbar qizini eslatadi. Tashqaridan qaraganda, bu she'r oshiqning bir qizga dil izhorini aks ettirgandek tuyuladi. Ammo uning zamirida shoirning o'z yurtidagi go'zal haqidagi, o'z Vatani haqidagi lirik kechinmalari aks etadi. Shoir o'z lirik kechinmasini boshqa bir lirik kechinma ostiga yashirgan holda ifodalaydi. Lirik kechinmaning ayni shunday ifodasini Erkin Vohidovning xorijda yaratilgan lirikasida ham uchratish mumkin. Vohidovning xorijda yaratilgan she'rlarida Azganush ismiga duch kelamiz. Shoir o'zga yurtning bu go'zaliga mehr qo'ygan bo'lsa-da, uning yonida qololmaydi. Shoir seviklisi bilan xayrlashishi lozim. Chunki u o'z diyori sari oshiqmoqda. Uni qadrdon Vatani, yor-u birodarlari kutmoqda. Shu sabab ham shoir:

*Xayr senga, xumor ko'zli Azganush,  
Xayr endi, ko'rishguncha, jonginam – [Vohidov, 2013, 351].*

deya yozishga majbur.

Lirik kechinmaning ayni shu tarzda ifodalanishi Abdulla Oripovning xorij safarlaridagi she'rlarida ham kuzatiladi. Xususan, muallifning "Jeneva daftari" tarkibiga kirgan "Jamayka" she'ri bu jihatdan e'tiborga molikdir. Ushbu she'rda shoir ko'ngil qo'ygan sanam "Ming bir kecha" ertaklarida ta'riflangan sanamlardan-da go'zalroqdir. Bu suluv muallifning yodiga olislarda qolgan yoshligini soladi:

*Boqib jamolingga, yuragimda mung,  
Olis yoshligimni esga olayin.  
Ortingdan "Jamayka, Jamayka", deb so'ng,  
U sirli qo'shiqni kuylab qolayin [Oripov 2019, 392].*

Aniq va ravshan ko'rinib turganidek, bu she'rda sevikli yor shoir yodiga olis yoshligini, demakki, shubhasiz, yoshligi o'tgan go'zal diyorini soladi. Jamaykaning go'zal qizi shoir qalbini

to'liqlantiradi va uni eng baxtiyor damlariga – yoshlik kezlariga qaytaradi, xayolan o'z yurtiga qaytaradi. Lirik kechinmaning bu kabi yashirin ifodasi shu to'plamdan o'rin olgan, 1996-yilda yozilgan “Habash qiz” she'rida yanada ravshanroq ayon bo'ladi. Shoir “Nari ketolmayman bir habash qizdan, Juda o'xshar ekan Senga ko'z-qoshi” deya yozar ekan o'z Vatanidagi dilbarni xotirlash vositasida yana Vatan bilan bog'liq kechinmalarga qaytadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Abdulla Oripovning xorij safarlarida yaratilgan she'rlarida turli millat ayollari obrazi uchraydi. Shoir ularning har birini hurmat va muhabbat bilan tilga oladi. “Jeneva daftari”dagi “Jamayka”, “Habash qiz”, “Italiya turkumi” tarkibidan joy olgan “Kamilla”, Armaniston turkumidan o'rin olgan “Yerevan ko'chasida” she'ridagi Salminaxonim kabi ayollar turli millat vakilidirlar. Ularning tili, dini, ko'rinishi, dunyoqarashi bir-biridan farq qilishi tabiiy hol, albatta. Ammo shoir bekorga ularga e'tibor qaratmadi, bekorga ularga atab she'r bitmadi. Boisi ularning har biridagi qaysidir jihat shoirning o'z yurtidagi muhabbatini yodiga soladi, qaysidir jihati bilan ular shoir sevgan, ardoqlagan o'zbek qiziga o'xshab ketadi. Ana endi Abdulla Oripov she'riyatidagi ayol obrazining chinakam mohiyati ayon bo'lgandek, asl ildizlari ko'ringandek, nazdimizda. Shoir xoh Jenevadagi, xoh Italiyadagi, xoh Yaponiya, xoh Amerikadagi ayol obrazini yaratmasin ularning barchasida qandaydir o'xshashlik, umumiylik bor. Ularning barchasi qaysidir jihatdan bir-biriga kelib bog'lanaveradi, bir-birini takrorlaydi. Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan she'rlaridagi barcha millat ayollari obrazini umumiy yaxlitlikda tutib turuvchi zanjir bu – shoir lirik kechinmasidir. Ularning har biri orqali muallif o'z Vatanini yodga oladi. She'rlarning tub zamiridagi o'sha barqaror lirik kechinma namoyon bo'ladi.

Abdulla Oripov she'rlarida uchragan Kamilla, Salminaxonim, Irina, Sergey Esenin sijodidagi Shahina, Erkin Vohidov she'rlaridagi Azganush obrazlarini real obrazlar sifatida qabul qilish shart emas, nazdimizda. Bu obrazlarning real yoxud norealligi adabiyotshunos uchun u qadar muhim ham emas. Bu obrazlarni yaratishdan shoirlarning ko'zlagan badiiy maqsadi bor. Ya'ni bu kabi obrazlar vositasida shoirlar o'z yurtiga bo'lgan sog'inchini, shu bilan birga Vataniga bo'lgan sevgisi qanchalar kuchli ekanini, bu sevgining o'rnini hech qanday sevgi egallay olmasligini ifodalab beradilar. Bu obrazlarga shoir maqsadini ochib beruvchi vosita sifatida qarash ma'qulroq. Shoirlar ayni shu obrazlar bilan xayrlashish jarayonida o'zlari sayohat qilgan o'lka bilan xayrlashadilar. Uning go'zalligini

ta'rif-u tavsif qiladilar. Shu bilan bir qatorda o'z yurtlarining go'zalligini alohida ta'kidlab, yurtga qaytish lahzalaridagi shodliklarini bayon etadilar. Ayon bo'lganidek, Abdulla Oripov she'riyatidagi turg'un lirik kechinmalar ba'zi she'rlarda vosita obrazlar yordamida ifoda etiladi.

Qolaversa, Abdulla Oripovning turg'un lirik kechinmalar aks etgan she'rlarida kamtarlik, shafqat, ezgulik, muhabbat kabi tuyg'ularni ulug'lab, manmanlik, shuhratparastlik, riyo, yovuzlik, hasad va nafrat kabi illatlar so'z tog'i ostida majaqlanadi. U shoir sifatida insoniyatdagi salbiy illatlarga goh bosiq inson nazari bilan baho beradi, goh nasihat yo'lini tanlasa, goh qattiqqo'llik bilan achchiq va keskir xulosalar beradi. Eng muhim jihati, shoirning o'zi kuchli e'tiqod qo'ygan tuyg'ularga yoxud nafrat ko'zi bilan boqqan illatlarga munosabati hech qachon o'zgarmaydi. Shoir ijodida turli yillarda, turli davlatlarga safarlar mobaynida yaratilgan ayni shu mavzudagi she'rlarda shoir lirik kechinmalari barqaror. Bu kechinmalar shoirni 1996-yilda bezovta qilgan, o'yga solgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ham ayni shu lirik kechinmalar shoirga hamroh. Hamon shoir ezgulik himoyasida, yovuzlikning qasdidagi. "Jeneva daftari"dan o'rin olgan "Vijdon", "Komillik", "Haqiqat", "Turkiya daftari"dan o'rin olgan "Vaqt", "Hasadgo'y", "Yaxshi va yomon", "Ummon orti ilhomlari"dan o'rin olgan "Daxlsizlik", "Hayot darslaridan", "Buyuk sabr", "Rostgo'ylik" kabilar shunday she'rlar sirasiga. Ushbu she'rlarda shoir bashariyat uchun ulug' bo'lgan eng muqaddas tuyg'ular kuychisi va himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi. Uning umuminsoniy kechinmalari o'ziga xos tarzda aks etishi jihatidan "Tunislik bola" she'ri muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Oripov bu she'rida bashariyat fojiasini aks ettiradi. Aslida shoir ijodida insoniyatga xos illatlar-u fazilatlar birdek badiiy mukammallikda aks etadi. Bu haqda adabiyotshunos B.Qosimov quyidagicha yozadi: "Adabiyotni aslida insonshunoslik deyishadi. Abdulla Oripov hassos insonshunos sifatida odam bolasining turfa xislatlarini, boshqalar ko'rmagan tomonlarini ilg'aydi, ularni nihoyatda nozik va ta'sirchan badiiy ifodalaydi - o'z tasavvur va hukmini boshqalar bilan ham o'rtoqlashadi. Ushbu muloqot natijasida kitobxon olam-olam zavq va huzur tuyadi. Shu ma'noda Abdulla Oripov she'riyati tafakkurga quvvat, tuyg'ularga, hislarga erk beradigan manbaga aylanadi" [To'xliyev B, <https://share.google/m4ZFdKSRUUjegCo8c>].

"Tunislik bola" she'rida Abdulla Oripov B.To'xliyev ta'kidlaganidek, "insonshunos sifatida" odamzotning eng qabih qiyofasini

ko'rsatib beradi. Bu she'rdagi lirik kechinma nihoyatda baland pafos vositasida aks ettiriladi.

*Bilaman, sen uchun parcha non qahat,*

*Zamin mozor bo'lsa, Afrika lahad* – [Oripov 2019, 271],

satrlaridagi zamin va Afrikaning poetik tasviri lirik kechinmaning ta'sir kuchini oshiradi. Shoir lirik kechinmalarida achinish, afsusnadamat, og'riq kabi tuyg'ular bilan bir qatorda, malomat, ta'na kabi hislar ham ko'zga tashlanadi:

*Shundoq holga kelmish qadimiy Lotin,*

*Bulg'alar sharafin, bulg'alar zotin* [Oripov 2019, 271].

Bu o'rinda bola obrazida kurashuvchanlik, halol rizq topish uchun mehnatning og'ir yukini yelkasiga olish, intiluvchanlik namoyon bo'ladi. Ammo uning qismatida fojia aks etadi. Fojianing bu kabi aks ettirilishi o'quvchi hislariga ta'sir ko'rsatadi, uni beixtiyor tunislik bolaning qayg'udoshiga aylantiradi, insoniy tuyg'ularini junbushga keltiradi. Shoir fojiaviylik asnosida inson qalbidagi go'zal hislarga intilish tuyg'usini oshirishga erishadi. "Fojialar orqali go'zallikni tasdiqlash doimo tarixiydir" [Qo'shjonov 2018, 316] fikri o'z tasdig'ini topadi.

Abdulla Oripovning lirik kechinmalarini akslantirishda tarixiy shaxslarning poetik obrazi muhim o'rin tutadi. Hukmdorlar, allomalar, jangchilar obrazlari ijodkorning vatanparvarlik, adolat, haqiqat, erk kabi kechinmalarining badiiy ifodalanishida ko'mak beradi. "Armaniston" she'rida Iskandar, Saljuq, Chingizxon kabi tarixiy shaxslar vositasida shoir arman yurti tuprog'ining qonga bo'yalgan damlarini yodga oladi:

*Afsona oshig'i buyuk Iskandar,*

*Saroylaring buzdi ermakka faqat.*

*Dunyoga to'zg'iding bamisoli par,*

*Na Saljuq, na Chingiz qilishdi shafqat* [Oripov 2019, 79].

Tarixning istilochilik harakatlari ijodkor kechinmalarini junbushga keltiradi. Qalbida vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh uradi. Arman yurti tarixidagi qonli kechmishlar shoir uchun butunlay notanish emas:

*Mening ham Vatanim janglar guvohi,*

*Mening ham tuprog'im toptalgandi xor* [Oripov 2019, 79].

Abdulla Oripov Tolstoy ta'kidlaganidek: "Tarix orqali zamonning ichiga kirsa" o'zining badiiy maqsadini yanada aniqroq idodalay olishini his etadi va o'z Vatanning zulm ostida o'tgan

yillarini eslaydi. Lirik kechinmalarini tarixiy obraz badiiy tasviri orqali akslantiradi.

*Bosqinchi zotlarni titratdi bot-bot,*

*Sog'uniy domlaning o'tli da'vati, – [Oripov 2019, 79].*

deya yozganida esa shoirning o'z o'tmishidan faxr tuyg'usini topganini anglash mumkin.

Shoir kayfiyat kishisi bo'lsada, o'zining aniq hayotiy pozitsiyasini, maqsadlarini lirik kechinma zamiriga singdirib yuboradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam ta'biri bilan aytganda: “Abdulla Oripov she'riyati – shoir-muallif umrininggina emas, butun bir zamondosh avlodning ruhiy xaritasi” [A'zam 2021, 7] ekani uning lirik kechinmalarida yaqqol aks etadi. Muallif lirik kechinmalari ifodasi “davrning tavsifnomasi” vazifasini bajaradi.

Abdulla Oripov tarixiy obraz vositasida nafaqat vatanparvarlik, balki ko'plab boshqa insoniy tuyg'ularni, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishda ham foydalanadi. Jumladan, inson nomini eng baland martabada sanab, inson inson bo'lib yashashi lozimligini, o'z darajasiga yarashadigan ishlar bilan mashg'ul bo'lmog'i zarurligini ta'kidlaydi. Zero, falakning o'zi ham Inson degan yaratiq bilan faxrlanadi. Mumtoz adabiyotimizda ko'p bora ta'kidlangani kabi Inson falakning gultojidir. Abdulla Oripov Inson haqidagi ayni shu ulug'vor kechinmalarini ifodalashda ham tarixiy shaxslar obrazidan mahorat bilan foydalanadi:

*Falak faxr etmishdir Insonni tug'ib,*

*U aslo halokat nedir ko'rmasin.*

*Prometey sahrada xas-xashak yig'ib,*

*Alpomish chumoli terib yurmasin [Oripov 2019, 282].*

Ushbu misralarda muallifning nafaqat inson ulug'ligi, uning baland darajada turishi haqidagi kechinmalari, qolaversa, har kim o'ziga yarashgan va o'ziga munosib hayot tarzida yashashi joizligi haqidagi hayotiy haqiqatlari va prinsiplari ham aks etadi. “Badiylik obrazlilik tushunchasiga mos keladi” [Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati 1967, 39] degan fikrdanoq obrazning lirik kechinma ifodasidagi o'rni muhim ekanligi anglashiladi. Lirik kechinma tabiatining anglashinish jarayonida obraz “o'tkazuvchilik” vazifasini bajaradi. Shoirning kechinmalarini o'quvchiga ko'chib o'tishi uchun o'tkazuvchilik vazifasini o'z zimmasiga oladi. Dostonlardagi Alpomish, Prometey obrazi qiyofasi bilan tanish bo'lgan, ularning zimmasida turgan vazifalarni aniq his qilgan shaxs, shoir insoniyat yelkasidagi vazifalarini qay tarzda aks ettirgani, nimalarni his

qilganini va his qildirmoqchi bo'lganini ham yaxshi anglab yetadi.

Adabiyotshunos Ummat To'ychiyev badiiylilikning yuzaga chiqishida obrazning ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: "Badiiylilik qanday qilib va qaysi sabablar tufayli, obrazli tafakkurning ajralmas qismi va zaruriy natijasi sifatida tarixan kelib chiqdi deb qaralsa, san'atning bu belgisini obrazli xosiyatdan kelib chiqib, tasnif etish mumkin, shundan keyingina unda asarning estetik qimmatini va ijtimoiy mazmuni o'z ifodasini qanday topganligini ko'rish mumkin" [To'ychiyev 2011, 115]. Abdulla Oripov lirikasida ham asar estetik qimmatining oshishida, ijtimoiy vazifa bajarishida, kechinmalar ifodasida obrazlar muhim vositadir. Ayniqsa, uning turg'un kechinmalari ifodasida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi.

### **Xulosa**

Shoir kechinmalari misoli zanjir kabi bir-biriga bog'langan. O'rtadan biror bir halqani olmoqning imkoni yo'q. Shoirning chet el safarlarida yaratilgan to'plamlaridagi fikrlar go'yoki bir kunda xayoldan o'tgandek, she'rlarning bari bir kunda yaratilganga o'xshaydi. Boisi, tahlil qilingan she'rlarning aksariyatida turg'un kechinmalar etakchilik qiladi. Ular shoir qalbida doim mavjud bo'lgan va ayni shu mavjudlik natijasi o'laroq mudom she'r bo'lib yaralavergan. Bunday she'rlar tahlili nafaqat adabiyotshunoslik uchun, balki insoniyat uchun ham zarurdir. Abdulla Oripov ijodi tadqiqi haqida to'xtalib, adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev "Hikmatjilvalari" maqolasida shunday yozadi: "Abdulla Orifshe'riyati qoliplarga sig'mas betakror hodisa o'laroq qonuniyatga osonlik bilan bo'y bermaydi. Bunday betakror hodisani to'liq izohlash osmonni quchmoq, ummonni bo'ysundurmoq tog'ni qopga joylamoq singari qilib bo'lmaydigan ishdir. Biroq ko'kka uchish, ummonda suzish, tog'ni kezish zarur bo'lganidek qaytarilmas poetik hodisani ham tekshirishga ulkan ehtiyoj bor. Negaki, tekshirmaslik bilmaslikni, bilmaslik to'yumaslikni, to'yumaslik esa, ruhan va aqlan g'ariblikni keltirib chiqaradi" [Yo'ldoshev 2018, 318]. Abdulla Oripov lirik kechinmalari tabiatini aniqlash bir qancha muhim nazariy asoslarga tayanadi. Shoir lirik kechinmalarining badiiy usullari va vositalari turlicha bo'lganligi bois, ularni aniqlash jarayoni bir qadar keng qamrovli jarayon ekanligi anglashiladi.

### **Adabiyotlar**

*Адабиёт назарияси.* 1979. II том. Тошкент: Фан.

*Адабий турлар ва жанрлар.* 1992. II жилд. Тошкент: Фан.

Бобобекова, Г. 2015. *Замонавий ўзбек шеърлятида лирик кечинма*

- Аъзам, Э. 2021. *Туйдим эҳтироснинг самовий кучин...* Тошкент: Олтиннашр.
- Адабиётшунослик терминлари луғати.* 1967. Тошкент: Ўқитувчи.
- Жабборов, Н. 2013. *Гўзал ташбиҳ, сирли руҳ. Озод ватан саодати.* Тошкент: Адиб.
- Орипов, А. 1977. *Эҳтиёж фарзанди. Усмон Носир ҳақида сўз.* Тошкент: Ёш гвардия.
- Орипов, А. 2013. *Ватан, кўрар кўзим, айтар сўзимсан.* Танланган асарлар. 7-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Орипов, А. 2019. *Tanlangan asarlar.* Тошкент: Sharq.
- Кенжабек, М. 2021. *Ёшларга дил сўзларим.* Тошкент: Адабиёт.
- Воҳидов, Э. 2015. *Замондошлари хотирасида. Хюстон илҳомлари.* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Толстой. 1960. *Ёш ёзувчиларга.* Тошкент.
- Тўхлиев, Б. *Мен – шоирман.* Хуршид Даврон сайти. <https://share.google/m4ZFdKSRUUjegCo8c>
- Тўйчиев, У. 2011. *Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари.* Тошкент: Янги аср авлоди.
- Шарафиддинов, О. 1979. *Талант – халқ мулки.* Тошкент: Ёш гвардия
- Қуронов, Д. 2007. *Адабиётшуносликка кириш.* Тошкент: Фан.
- Қўшжонов, М. Сувонов, М. 2000. *Истеъдоднинг туғилиши.* Абдулла Орипов. Тошкент: Маънавият.
- Қўшжонов, М. 2018. *Гўзалликда фожиавийлик.* Танланган асарлар. Тошкент: Шарқ.

## The Nature of Lyrical Experience

Gulrukh Khudoyorova<sup>1</sup>

### Abstract

The poems written by Abdulla Oripov during his foreign travels are characterized as products of an individual creative style, as reflected in their artistic scope, formal and thematic features and the expression of lyrical experience. In Uzbek literary studies, the issue of the harmony between lyrical emotion and poetic imagery in the works of major poets has been explored only partially. Within this scholarly framework, the present article examines the poetry of Abdulla Oripov, People's Poet of Uzbekistan and the founder of a distinctive poetic school, and offers an

---

<sup>1</sup> *Gulrukh N. Khudoyorova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

**E-pochta:** xidrallyevazoxira@navoiy-uni.uz

**ORCID-ID:** 0000-0002-7976-1093

**For citation:** Khudoyorova, G. N. 2025. "The Nature of Lyrical Experience". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 110 – 126.

academic assessment of his place in the nation's artistic and aesthetic consciousness.

Furthermore, the specific features of lyrical experience in the poet's oeuvre are analyzed, with particular attention paid to examples of autopsychological lyricism. The manifestation of inner and outer lyrical experience is examined through the author's perspective and creative innovation, on the basis of poetic texts and from both artistic and scholarly viewpoints. In addition, the methods and means by which the poet's creative emotions are expressed in his works are investigated.

**Key words:** *lyrical experience, autopsychological poetry, inner and outer experience, artistic thinking, antithetical lyrical experience, stable lyrical experience.*

### References

- Adabiyot nazariyasi.* 1979. II tom. Toshkent: Fan.
- Adabiy turlar va janrlar.* 1992. II jild. Toshkent: Fan.
- Bobobekova, G. 2015. *Zamonaviy o'zbek she'riyatida lirik kechinma ifodasi.* BMI. Guliston.
- A'zam, E. 2021. *Tuydim ehtirosning samoviy kuchin...* Toshkent: Oltin-nashr.
- Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati.* 1967. Toshkent: O'qituvchi.
- Jabborov, N. 2013. *Go'zal tashbih, sirli ruh. Ozod vatan saodati.* Toshkent: Adib.
- Oripov, A. 1977. *Ehtiyoj farzandi. Usmon Nosir haqida so'z.* Toshkent: Yosh gvardiya.
- Oripov, A. 2013. *Vatan, ko'rar ko'zim, aytar so'zimsan.* Tanlangan asarlar. 7-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Oripov, A. 2019. *Tanlangan asarlar.* Toshkent: Sharq.
- Kenjabek, M. 2021. *Yoshlarga dil so'zlarim.* Toshkent: Adabiyot.
- Vohidov, E. 2015. *Zamondoshlari xotirasida. Xyuston ilhomlari.* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Tolstoy. 1960. *Yosh yozuvchilarga.* Toshkent.
- To'xliiev, B. Men – shoirman. Xurshid Davron sayti. <https://share.google/m4ZFdKSRUUjegCo8c>
- To'ychiev, U. 2011. *O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Sharafiddinov, O. 1979. *Talant – xalq mulki.* Toshkent: Yosh gvardiya
- Quronov, D. 2007. *Adabiyotshunoslikka kirish.* Toshkent: Fan.
- Qo'shjonov, M. Suvonov, M. 2000. *Iste'dodning tug'ilishi.* Abdulla Oripov. Toshkent: Ma'naviyat.
- Qo'shjonov, M. 2018. *Go'zallikda fojiviylik.* Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq.